

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Musabekov Sherali Nazarali o'g'li
Qo'qon universiteti talabasi,
Xursanaliyev Boburmirzo Farhod o'g'li
Qo'qon universiteti katta o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonda kichik korxonalar va ularga yaratilgan sharoyitlar va ularning bu sharoyitlardan foydalanagan holda YAIM ga qo'shayotgan ulushlari va shu korxonalarni turlari bo'yicha qay darajada ulush qo'shayotgani kaysi sohalarda yaxshi ishlayotgani va qaysi sohalarda ish ulushlari kamligini yoritib o'tamiz.

Kalit so'zlar; kichik korxonalar, tadbirkorlik, YAIM, iqtisodiy islohotlar, foizlar

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi bilan uning tarkibiy qismi sifatida kichik korxonalar taraqqiy etish boshladi. Kichik biznesni tashkil etishni qo'llab quvvatlash va yanada rivojlantirish tizimi ham uni doimiy takomillashtirib borishni talab qilmoqda. Jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotgan, mablag'lari yetishmayotgan korxonalar va tadbirkorlikni yuritish uchun yetarli bilim va malakaga ega bo'lmagan tadbirkorlar uchun davlatimiz ko'p shart-sharoitlar yaratib kelmoqda. Bizning Respublikamizda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik soni va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasining "korxonalar to'g'risida", "mulk to'g'risida", "erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida" gi qonunlari Prezident farmonlari va Vazirlar mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy yonaltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar otkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-meyoriy hujjatlar, tadbirkorlarga komaklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarini majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. O'zbekistonda kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashtirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xizmat korsatadigan banklar, fondlar, investsiyalar va sugurta tashkilotlarining faoliyatlarini ragbatlantirish yonlashida olib borilishi lozim. Xorijiy mamlakatlardagi kabi O'zbekiston Respublikasida ham agar korxonalar ustuvor davlat dasturida (yangi texnikani yaratish, uzoq hududlarni rivojlantirish va boshqalar) qatnashayotgan bolsa, imtiyozli qarzlarni olishi mumkin. Bunda foizning eng kam me'yor va qarzni uzishda uzoq muddat berilishi – qarzni berishdagi asosiy shartlardandir. Mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishida qurilish va pardozlash materiallari, asbob - uskunalar, mashinasozlik ehtiyot qismlari va uskunalar, elektrotexnika, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari, iste'mol tovarlarining ko'plab turlarini ishlab chiqarish va boshqalar yuqori potensial ega sohalarda hisoblanadi. Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini

kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik sub'yektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash katta ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlarini samarali kichik biznes sohasida ko'proq ish o'rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamkakatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshishiga imkon yaratadi.

1-jadval.

2020 -2021 yilning kichik korxonalar va tadbirkorlik yuritish ko'rsatkichlari.

	O'lchov birligi	2020- y.	2021-y	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	Birlikda	411203	462834	51631
Kichik tadbirkorlik ulushlari:				
YAIM	%	55,5	54,9	-0,6
Sanoat	%	27,9	27,0	-0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	96,7	96,7	-
Investitsiya	%	46,7	47,9	1,9
Qurilish	%	72,5	72,4	-0,1
Savdo	%	82,3	82,1	-0,2
Xizmatlar	%	51,8	51,1	-0,7
Yuk tashish	%	51,6	49,4	-2,2
Yuk aylanmasi	%	75,8	73,4	-2,4
Yo'lovchi tashish	%	93,5	92,8	-0,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,2	95,2	-
Eksport	%	20,5	22,3	1,8
Import	%	51,7	48,7	-3,0

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan va 2021- yil yanvar oyida e'lon qilingan dastlabki baholash natijalariga ko'ra, 2020- yilda YAIMning o'sish sur'ati 1,6 % ni tashkil etgan. Shu bilan birga, 2021- yilning iyun oyida xalqaro standartlarga muvofiq, YAIM hisob-kitoblari uslubiyatini takomillashtirish bilan bog'liq o'zgartirishlarni kiritish natijasida mazkur ko'rsatkich 1,7 % gacha o'zgargan. Mazkur o'zgartirishlar yuzasidan batafsil axborot Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb saytida e'lon qildi. Shuningdek, 2021- yilning noyabr-dekabr oylarida 2020- yil uchun YAIM ko'rsatkichining yakuniy hisob-kitoblari amalga oshirildi va unga ko'ra, YAIMning o'sish sur'atlari 1,9 % ni tashkil etdi. 2021- yilning

yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,7% i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etgan holda 42031,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021 yil yakunlariga ko'ra O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2020 yilga nisbatan 16%ga ko'paydi va 42,1 mlrd dollarni tashkil etdi, deya xabar berdi Davlat statistika qo'mitasi matbuot xizmati. O'tgan yil yakuni bo'yicha hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistondan eksport hajmi 10%ga ko'payib, 16,611 mlrd dollarga yetdi. Import hajmi esa 20,4% ga ko'paydi va 25,461 mlrd dollarni tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasining manfiy tashqi savdo balansi 8,85 mlrd dollarni tashkil etdi — o'tgan yili ushbu ko'rsatkich 6 mlrd dollar bo'lgan edi. O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari orasida Rossiya (umumiy savdo aylanmasining 17,9%), Xitoy (17,7%), Qozog'iston (9,3%), Turkiya (8,1%) va Janubiy Koreya (4,5%) davlatlari qolmoqda. 2021 yilda O'zbekistondan eksportning asosiy qismini sanoat tovarlari (umumiy eksportning 26,1%), oltin (24,7%), xizmatlar (15,3%) va oziq-ovqat tovarlari (8,3%) tashkil etdi. O'tgan yil davomida O'zbekistonga importning asosiy qismini mashinalar va asbob-uskunalar importi (32,4%, 2020 yilga qaraganda 5,2%ga kamroq), sanoat tovarlari (18,5%), kimyoviy vositalar (14,3%), oziq-ovqat tovarlari (9,9%) va xizmatlar (6,8%) tashkil etdi. O'z o'rnida, 2021 yilda sanoat tovarlari (ularga to'qimachilik mahsulotlari, rangli metallar, temir va po'lat kiradi) eksporti 2020 yilgi eksport hajmiga nisbatan 7%ga o'sgan. 2020 yilda eksport qilingan oltin hajmi esa 2021 yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan 13,7% ko'proq bo'lgan. Shuningdek, mashinalar eksportining ulushi umumiy eksport hajmida 1,5 marotabaga ko'payib, 4,2%ga yetgan. 2021 yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2020 yilga nisbatan 16%ga o'sib, \$42,1 mlrdni tashkil etdi. Eksport hajmi 10%ga oshib, \$16,6 mlrdga yetgan bo'lsa, import 20,4%ga o'sib, \$25,46 mlrdni tashkil etdi. Sanoat tovarlari eksporti oltin eksportidan o'zib ketdi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekistonda kichik tadbirkorlik ham tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kichik tadbirkorlik ishlovchilar soni cheklangan xo'jalik yurituvchi yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar majmuyidir. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi kichik tadbirkorlikka tegishli. Uni qo'llab-quvvatlashga davlat ham alohida e'tibor bermoqda va natijada uning salohiyati ko'tarilib bormoqda. Shunday qilib, tadbirkorlik mamlakatda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi bandligi, daromadlari, farovonligini ta'minlash, mulkdorlar qatlamini shakllantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda katta rol o'ynaydi va yetakchi o'rin egallaydi. Uning bunday roli va o'rnini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti lokomotivi, yetakchisi maqomini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik Muallif: Boltabaev [M.](#) Noshir. Betlar: 130-145
2. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=fXS-AZ8AAAAJ&citation_for_view=fXS-AZ8AAAAJ:u-x6o8ySG0sC
3. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=fXS-AZ8AAAAJ&citation_for_view=fXS-AZ8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
4. www.statuz.uz, www.arxiv.uz, www.gazeta.uz,